



Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

XORAZM VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



2021-yil uchun



Fan va innovatsiya



Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan va innovatsion tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, bu borada yaratilgan har qanday ilmiy natijalarni ishlab chiqarishni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 7- maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-son qarori mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlarga dasturiy amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyida tayanch doktorantura va doktoranturasi mavjud institutlar soni, ularda tahsil oluvchilar, qabul qilinganlar, bitiruvchilar hamda ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar va ulardagi xodimlar soni hisobot yilida ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar doirasida keltirilgan. Shu bilan birga hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida innovatsiyalar joriy qilgan tashkilotlar soni va ularda joriy qilingan innovatsiyalar soniga oid statistik ma'lumotlar keltirilgan.

**Ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni
3 ta sektorga ajratib ko'rsatilgan**
(2021- yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)




Tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni
(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlikda)

Viloyatimizda 2021- yil oxiriga tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni 2 tani tashkil etgan bo'lib, 2018- yilda ham bu ko'rsatkich 2 tani tashkil etgan va o'sish kuzatilmagan.




**Xorazm viloyati bo'yicha tayanch doktoranturasi mavjud
institutlarda tahsil oluvchilar soni**

(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



2021- yilda Xorazm viloyati bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil oluvchilar soni 92 nafarni tashkil etib, 2018- yilga nisbatan 7 nafarga ko'paygan.




**Xorazm viloyati bo'yicha tayanch doktorantura institutlarida tahsil
oluvchilar, qabul qilinganlar va bitiruvchilar soni**
(2021- yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)

2021- yilda viloyatimizda tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlarning umumiy soni 2 tani tashkil etib, ulardan 1 tasini ilmiy tashkilot va 1 tasini oliy ta'lim tashkiloti tashkil etadi. Ularda tahsil oluvchilar soni 92 nafar bo'lib, qabul qilinganlar 41 nafarni va bitiruvchilar 31 nafarni tashkil etgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha doktoranturada
tahsil oluvchilar soni**
*(tegishli yilning yanvar-dekabr oylari uchun,
kishida)*



Xorazm viloyati bo'yicha doktoranturasi
mavjud tashkilotlar soni

(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Jami tashkilotlar soni



2021- yilda jami tashkilotlar soni 2 tani tashkil etib, ulardan ilmiy tashkilotlar 50,0 %ga (1 ta) va oliy ta'lim tashkilotlar 50,0%ga (1 ta) to'g'ri kelmoqda. 2020- yilda bu ko'rsatkich 2 tani tashkil etgan va o'sish kuzatilmagan.

Qabul qilingan fan doktori
darajasi izlanuvchilar soni

kishi


| | |
|-----------|---|
| 2021- yil | 2 |
| 2020- yil | 2 |
| 2019- yil | 1 |

Bitirgan fan doktori darajasi
izlanuvchilar soni

kishi


| | |
|-----------|---|
| 2021- yil | 2 |
| 2020- yil | - |
| 2019- yil | 2 |

Xorazm viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va
tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan xodimlar soni
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



- ❖ Viloyatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan xodimlar soni 2021- yilda 2020- yilga nisbatan 208 kishiga oshdi va 1415 nafarni tashkil etdi.
- ❖ 2021- yilda ushbu xodimlarning 8,1%i kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat bo'yicha, 91,9 %i ta'lim faoliyat turi bo'yich ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Sektorlar bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini
bajargan xodimlar soni
(2021- yiling yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)



Viloyatda fan sohalari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-tayanch
doktorantura institutlarining asosiy ko'rsatkichlari
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, kishi)

Tayanch doktorantura
institutlari soni, birlik:



Qabul qilingan falsafa doktori darajasi
izlanuvchilari soni, kishi:

2

41

Tabiiy fanlar

2

Tabiiy fanlar

16

Texnika fanlari

1



Texnika fanlari

2

Qishloq xo'jaligi fanlari

1



Qishloq xo'jaligi fanlari

3

Ijtimoiy fanlar

1



Ijtimoiy fanlar

10

Gumanitar fanlar

1




Gumanitar fanlar


10

**Xorazm viloyatida hududlar bo'yicha
texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni**
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Hududlar kesimida



Xorazm viloyatida hududlar bo'yicha texnologik innovatsiyalar joriy qilingan tashkilotlar soni 20 tani tashkil etdi. Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, shundan eng yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida 7 tani tashkil etgan.



Xorazm viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni

(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

29

Jami

1

Qishloq, o'rmon va baliq
chilik xo'jaligi

2

Qurilish

17

Ishlab chiqarish sanoati

2

Ta'lim

7

Boshqa faoliyat turlari

Xorazm viloyati bo'yicha korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlariga qarab ajratib olinadi. Ularda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar soni asosan ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami soniga nisbatan 58,6 %ni tashkil etdi.



O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)



Innovatsiya ta'rifi bo'yicha, tashkilot ichki bozor yoki butun dunyo uchun yangi bo'lgan ma'lum miqdordagi yangilikni o'z ichiga oladi. 2021- yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha jami soni 69 ta bo'lib, shundan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida 18 tani tashkil etgan.



Xorazm viloyati bo'yicha joriy qilingan jami innovatsiyalar soni

(2021-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, birlik)

Jami innovatsiyalar – 31

Texnologik – 29

Marketing – 1

Tashkiliy – 1



Innovatsiyalar 3 turga bo'linadi. Bular texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalardir. 2021- yilda viloyatda jami joriy qilingan innovatsiyalar 31 tani tashkil etib, shundan 29 tasi texnologik, 1 tasi marketing va 1 tasi tashkiliy innovatsiyadir.

Innovatsion faoliyat – g'oyalar transformatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni bozor uchun joriy etish bilan hamohang bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Oliy ta'limdan keyingi – doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va ximoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim turi.

Tayanch doktorantura – falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli.

Doktorantura – fan doktori (Dostor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

Innovatsiya – ilmiy-texnikaviy faoliyat natijasi, realizatsiya qilish jarayonida yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmatlar yoki jarayon, shuningdek ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy qarorlari, ma'muriy, tijorat yoki boshqa xarakterdagi, texnologiyalarning, mahsulotlarning va xizmatlarning bozorlarda yangilanishiga yordam berilishi tushuniladi.



Press-relizni tayyorlash
uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi



Manzil: Urganch sh.,
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy



Тел.: +99862 224-65-21



e-mail: xorazmstat@umail.uz



www.xorazmstat.uz



facebook.com/xorazmstataxborot